

## **INSON XOTIRASI MUQADDAS**



### **MUSOFIRLIKDA TANISHGAN HAMKASBIM VA QADRDON DO‘STIM**

**Sidikov Sabir Mamasoliyevich**  
**FarDU jismoniy madaniyat va uslubiyoti**  
**kafedrası dotsenti, biologiya**  
**fanlari nomzodi,**  
**Turon fanlari akademiyasi akademigi**

Bu dunyoda shunday insonlar bo‘ladiki, ular hayotlik chog‘idayoq o‘zlari uchun kishilar xotirasida abadiy saqlanib qoladigan haykal o‘rnata oladilar. Donishmanddan: “Dunyoda eng badavlat kishi kim?” – deb so‘rashganda, u “Dunyoda eng badavlat kishi” shogirdi bisyor muallimdir”, – deb javob bergan ekan. Chin ma’noda bu gap haq gap. Sahovatli o‘qituvchilar yaxshi shogirdlarni yetishtirib chiqardi”, degan edi rus olimi matematik M.V.Ostrograuskiy. Yaxshi insonlar, yaxshi ustozlarning ishlari bir necha asrlarga tatigulik bo‘ladi. Ana shunday insonlardan biri o‘z sohasining taniqli olimi, kamtarin ustoz g‘amxo‘r rahbar, tashkilotchi mehribon ota, nevaralarining sevimli bobosi Andijon davlat universiteti dotsenti biologiya fanlari nomzodi Ergashboy Xalilov edi.

Ergashboy bilan bir viloyatda qo‘shni oliygohda ishlasakda, Andijon viloyat Qo‘rg‘ontepa tumani Yor-qishloqlik bo‘lsamda, yaqinidan tanish emas edik.

Men ham 1977 yil ko‘p yoshlar singari ilm bilan shug‘ullanish maqsadida ustoz Siddiq Maxmudov tavsiyasi bilan Sank-Peterburg (Leningrad) shahridagi sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasining I.P.Pavlov nomidagi fiziologiya instituti Nafas olish fiziologiyasi laboratoriyasiga shogird-tadqiqotchi bo‘lib borganda ilk bor Ergashboy bilan tanishgan edim. Birinchi suhbatimizdayoq u inson menda juda chuqur taassurot qoldirdi. Muloqotning dastlabki kunlarida Ergashboy o‘z sohasining yetuk bilimdoni, keng dunyoqarashga egaligi, atrofidagi insonlarga va do‘stlarga juda ham e‘tiborli ekanligi, ochiq chehrali, tabassumi yarashiqli hamkasb, do‘st ekanligini kashf etdim.

U institut direktori professor K.P.Ivanov laboratoriyada ikki yilik ilmiy tadqiqotchilik muddatini tomomlab aspiranturada o‘qishni boshlagan ekan, men yangi hamkasb, yangi do‘st uchraganimdan xursand bo‘lsam-da, u insonning ilm sohasidagi fikr va qarashlarini ko‘rib ancha o‘ylanib qoldim, chunki men jismoniy tarbiya sohasi mutaxassisi bo‘lganim sababli umumiy biologiya va fiziologiya fanlarini yangidan, chuqquroq o‘zlashtirish kerakligini sezdim. Bunda do‘stim Ergashboy menga ustozlik qilib, fanlarni o‘zlashtirishimda hamda imtihonlarni muvaffaqiyatli topishirishimda katta ko‘makchi bo‘lganligi hech unutmayman.

Uch yil bir yotoqxonada, Qultishdagi aspirantlar turar joyida yashab, u kishidan ko‘proq narsalar o‘rganishga sazavor bo‘ldim.

Ergashboy O‘zbekistonning turli viloyatlarda kelib ilm qilayotgan ilmiy-tadqiqotchi va aspirantlarga o‘zining sidqidildan maslahatlarini va yordamlarini ayamas, ilmiy ishlarini

yakunlab oliygohda kafedra mudiri, dekan lavozimida ishlagan vaqtlarida ham doimiy hamkorlikda ilmiy kanferensiyalar va sport turlari bo’yicha turli musobaqalar tashkillash va o’tkazishda doimo tashabbus ko’rsatar, yoshlarga har sohada faol bo’lishda o’rnak ko’rsatishdan aslo charchamas edi.

Musofirlikda tanishgan hamkasbim, do’stim Ergashboy bilan 45 yildan ortiq yillarda doimo bordi-keldi qilib, ko’plab hamkasblar, do’stlar, shogirdlar orttirishga muyassar bo’ldim.

Afsuski, bugun hamkasbimiz, do’stimiz mehribon va talabchan ustoz oramizda yo’q. Lekin uning chukur ma’noli, kulgulari jarangdor ovozi, samimiy-dilkash va barakamol siymosi esa hamkasblari, do’stlari va shogirdlari ko’z o’ngida doimo yo’lchi yulduzi singari porlab turadi. Hamkasblari, do’stlari, yuzlab va minglab shogirdlarining yodida Ergashboy Xalilov fiziologiya fanining chin fidoyisi, chuqur bilimdon mohir pedagog, talabchan va mehribon Ustoz timsoli bo’lib qoladi.

Hamkasb do’stimizning oxirati obod, ruhlari shod bo’lsin!